

USMON NOSIR SHE'RLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Hamrayev Ilg'or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o'qituvchisi.

Suyunova Durdona Alimardon qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2 – bosqich 206 – guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15279498>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoiri, yozuvchi va erk kuychisi Usmon Nosirning hayoti va ijodidagi o'ziga xoslik hamda uning she'rlarining bugungi kundagi badiiy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston xalq shoiri, erk kuychisi, jo'shqin iste'dod egasi, o'zbekning Lermontovi Pushkin, "yurak", "yoshlik", yangi ohang, yangi ruh.

THE SIGNIFICANCE OF USMAN NASSIR'S POEMS TODAY

Abstract. This article discusses the uniqueness of the life and work of the poet, writer, and free verse singer Usman Nasir, as well as the artistic significance of his poems today.

Keywords: People's poet of Uzbekistan, free-spirited singer, passionate talent, Uzbek Lermontov Pushkin, "heart", "youth", new melody, new spirit.

ЗНАЧЕНИЕ СТИХОТВОРЕНИЙ УСМАНА НАСИРА СЕГОДНЯ

Аннотация. В статье рассматривается уникальность жизни и творчества поэта, писателя и исполнителя верлибра Усмана Насира, а также художественная значимость его стихов сегодня.

Ключевые слова: Народный поэт Узбекистана, свободолюбивый певец, страстный талант, узбекский Лермонтов, Пушкин, «сердце», «юность», новая мелодия, новый дух.

USMAN NASSIR'IN ŞİİRLERİNİN GÜNÜMÜZDEKİ ÖNEMİ

Özet. Bu makalede şair, yazar ve serbest nazım sanatçısı Usman Nasir'in hayatının ve eserlerinin benzersizliği ve şiirlerinin günümüzdeki sanatsal önemi tartışılmaktadır.

Anahtar Sözcükler: Özbekistan Halk Şairi, özgür ruhlu şarkıcı, tutkulu yetenek, Özbek Lermontov-Puşkin, "kalp", "gençlik", yeni melodi, yeni ruh.

Kirish.

Shoir, dramaturg, tarjimon, jo'shqin iste'dod egasi bo'lgan Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabr kuni Namangan viloyatining Tongatar mahallasida dunyoga kelgan. Yosh Usmon 4 yoshida otasidan yetim qoladi. Uning onasi Xolambibi Qo'qonga turmushga chiqqanligi sababli Usmonni bolalar uyiga topshiradi. So'ng shoir maxsus internatda ta'lim - tarbiya oladi. Otasidan erta yetim qolgan bo'lajak shoir quydagi satrlar bilan bolaligini yodga oladi.

Otam o'ldi, men sarson bo'ldim,
Shum yetim deb so'kdilar meni.
Ajab kunlarga muftalo bo'ldim,
Ko'chalarga quvdilar meni...

Usmon Nosir 1929-1930-yillarda Moskva Kinematografiya institutining ssenariy fakultetida bir yil taxsil oladi, ammo o'qishni tamomlamaydi va Qo'qonga kelib bir qancha ishlarda faoliyat olib boradi. Ilm olishdan charchamaydigan shoir 1930-1933-yillarda

Alosher Navoiy nomidagi Samarqand pedagogika akademiyasining til va adabiyot fakultetida o'qiydi. 1934-yilga kelib u Toshkentga keladi va shu yerda "Yosh Lelinci" gazetadida o'z faoliyatini olib boradi. Usmon Nosir 18 yoshidan to 24 yoshigacha adabiy faoliyat bilan shug'illangan bo'lsa-da o'zing she'rlari bilan xalqimiz qalbidan joy olishga ulgurgan.

Erk kuychisi Usmon Nosir o'zing birinchi she'rini 1927-yil "Yangi yo'l" gazetasida "Haqiqat qalami" nomi bilan chop etadi. Usmon Nosir qisqa muddat ichida beshta she'riy to'plam "Quyosh bilan suxbat", "Safarbar satrlar", "Taraktorobod", "Mehrim", "Yurak", ikkita doston "Narbo'ta" va "Naxshon", yana to'rtta drama "Atlas", "So'ngi kun", "Dushman", "Zafar" kabi durdona asarlar yozadi. Shoir qizg'in ijod qildi. Uning she'riyat olamiga kirib kelishini Turob To'la shunday ta'riflaydi: "Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday!

U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda "O'zbekning Lermantovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi" -deb yozishdi.

Shoir tarjima sohasida ham o'z o'rniga egadir. U Aleksandr Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Mixail Lermontovning "Iblis" dostonlarini, Nikolay Dobrolyubovning "Haqiqiy kun qachon keladi?" yirik asarini hamda jahon adabiyotining yirik namoyandalari bo'lgan Geyne, Gote, Bayron she'rlaridan ham tarjimalar qiladi.

Usmon Nosir she'riyati jo'shqinligi, soddaligi, ta'sirchanligi va o'sha davrda adabiyot o'ziga yaratib olgan muhitdan, qolipdan tashqariga chiqa olganligi bilan boshqa ijodkorlardan farq qiladi. Shoirlar Milliy andisha, odob - axloq qolipidan chiqmaslikka harakat qilayotgan bir paytda Usmon Nosir o'sha qolipni buzib chiqadi. Bu gaplarimizga misol qilib quydagi satrlarni keltirish mumkin.

Sevgi!

Sening shirin tilingdan

Kim o'pmagan, kim tishlamagan?

Darding yoyday tilib ko'ksidan,

Kim qalbidan qonlar to'kmagan?

"Bag'ishlov" she'rida ham shoir uyat andishalik qolipidan erkin chiqqanligini ko'ramiz.

Bu satrlarda yorga murojaat etadi uning yo'lga mushtoq ekanligi, ko'z tuta- tuta yuragi qonga to'lganligini yozadi.

Ko'z tutdim

Ko'zlarim nigoron bo'ldi;

O, dilbar,

Simbarim, yuzlari qirmiz.

Kiprigi ko'ksiga

Soya solgan qiz,

Ko'z tutdim,

Yuragim to'la qon bo'ldi.

Usmon Nosir she'rlarining yana bir xususiyati borki uni chetda qoldirish mumkin emas.

Bu xususiyat shuki she'rlari orqali o'sha davr insonlariga va hozirgi davr yoshlariga ham o'rnak bo'la oladi.

Yoshlik

Yoshligimning tarozisi beposangi,

Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir.

Sevinchim ko'p, shodligim zo'r ... tilim biyron,

Qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir.

Usmon Nosir "Yoshlik" she'rida bolaligi xotirlaydi, u qancha qiyinchilik bilan o'tmasin, barbir u yoshligidan mamnun "Qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir" - deydi. Bu she'ridan biz hayotdan nolimaslikni, shukur qilishni o'rganishimiz mumkin.

Yurganmisiz birga oy bilan
Yurganmisiz birga oy bilan
Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?
Maysalarga shabnam qo'nganda,
Shunday yaxshi tinch bo'lar ekan.

Bu satrlarda tabiat qanchalik chiroyli sokin, tinch ekanligini unda inson o'zini hotirjam erkin tuta oloshini aytib o'tgan. Shoir tabiatni sevadi uni qadrlaydi. Shoir "Yurganmisiz birga oy bilan", "Dengizga", "Dengiz oyna kabi" kabi tabiat haqida she'rlar bitadi.

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!
Ko'nglimda ishqingni olib qaytaman.
Sochimni o'ynaydi muzdek sho'x shamol,
Men unga dardimni qanday aytaman?

Usmon Nosir chaqmoq kabi she'riyatga kirib keldi va butun bir jamiyat va she'riyat a'zolari qalbida chuqur iz qoldirib ketti. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Usmon Nosir haqida shunday deydi: "Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz? U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasi oqib ulgurmagan shabnamdir. U hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutquch bermasdir. Biz Usmon Nosirni qadrlaymiz. Chunki u she'riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chaman, sira xazon bo'lmaydigan mo'jiza bog' yaratib ketdi"

Oq yuvib, oq tarab...
Esingdami, g'arib ona,
U qishlarning zahri?
Yuzni momataloq qilgan
U yillarning qahri?

Usmon Nosir bu she'rini onasiga Samarqandda bo'lgan chog'lari yozadi. Bu misralarda onasiga bo'lgan chek - chegarasiz mehr- muhabbatini yana onasi bilan qiyinchilik, mashshaqqat ila birga yashaganligini sezish qiyin emas. Shoirga O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 60-moddasi 1-qismi bilan "muntazam ravishda millatchilik va aksilinqilobiy tashviqot olib borgani va Sovet hukumati haqida ommaviy ravishda odobsiz shaklda so'zlagani" ayblovi qo'yiladi.

Bo'lmoq istab, she'riyat uzra darg'a,
Itardilar meni chuqur bir jarg'a.

Menga ayon, bulbulning oshiyonig'a,

Qo'nolmag'ay urinish bilan qarg'a

Bu she'rida shoir yana shu davrdan aziyat chekib yozganligini ko'ramiz, shu paytdagi xasadchilar uni xalq dushmani deya nohaq tuxmat qilyotganlar misralarga muhrlangan. Bu misralarni Usmon 1937-yil sentabr zindonda ekanligida yozadi.

Unitmas meni bog'im

Ming yillardan keyin ham

Unutmas meni bog'im.

She'rlarim yangrab qolur...

Bir umrga o'lmayman.

"Umitmas meni bog'im" she'rida shoir uning she'riyati o'lmasligiga, bir kun kelib uning " xalq dushmani" deya qoralangan nomi oqlanishiga ishonch bildiradi. Bog'im deya u xalqni vatanni nazarda tutmoqda. Haqiqatdan ham bunday otashqalb ijodkorlarimiz nomi oqlandi.

Usmon Nosirga prezidentimiz ham ulkan ehtirom va hurmat ila quydagi jummalarni keltiradi:

"Usmon Nosir ayni ijodiy kuch-quvvatga to'lgan 25 yoshida qamalib, qatag'on qilindi.

Chunki mustabid tuzum bunday millatparvar, vatanparvar insonlarni o'zining eng ashaddiy dushmani, deb hisoblar edi. Shuning uchun ham, shoir umrini qamoqxonalarda azob-uqubatda o'tkazib, 1944-yili 32 yoshida vafot etadi. Kelgusi yili yurtimizda Usmon Nosir tavalludining 110-yilligi munosib nishonlanadi", - degan edi muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev. 2022 yil 10-fevral kuni "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi prezident qarori qabul qilindi. Usmon Nosir she'rlari bugunga kunga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. She'rlari jozibadorligi, soddaligi, ta'sir doirasi kengligi, tarbiyalovchi harakterda ekanligi, jo'shqinligi bilan hali ham she'riyat shinaavandalarining e'tiborini qaratib kelmoqda. Usmon Nosirdek buyuk ijodkorlar kam tug'iladi, lekin ular yaratgan durdona asarlar tillardan-tillarga, dillardan - dillarga o'tib insonlar qalbida buyuk hayojonni uyg'otib, ularga qalbida muhrlanib qolaveradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda 20 asr iste'dodli va betakror shoiri Usmon Nosir o'zining sodda va samimiy she'rlari bilan o'ziga chorlab turadi. Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularini jilovlamas, dilida kechayotgan tug'yonlarni susaytirmas, inson ruhiy dunyosini po'rtanalar ichida ko'rsatardi.

Usmon Nosir she'riyati, avvalo, hayotiyligi, jozibadorligi va isyonkorligi, ayni chog'da sodda va ravonligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o'rin olgan. Xulosa o'rnida Abdulla Oripovning shoir haqidagi fikrini keltiramiz: "Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasi oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir". Shoir, dramaturg, tarjimon Usmon Nosir o'zining sodda va betakror she'rlari bilan xalqimiz qalbida abadiy yashaydi.

REFERENCES

1. Ibrohim qizi M. Shoir boqiy yashaydi // Diydor. – 2002. 3-b.
2. Matjon S. Chaqmoq umrli shoir // Til va adabiyot ta'limi. – 1992. – №5-6., 13-14 b.
3. Hasanova I. Isonkor shoir nidosi // Zamondosh. – 2002. 4 b.
4. „Kemerovoda Usmon Nosir haykali ochildi“ (2023-yil 5-sentyabr). 2023-yil 5-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 5-sentyabr.
5. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.
6. Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov. Adabiyot (7-sinf darsligi). -T.: „O'qituvchi“. 2000.
7. Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov. Adabiyot (7-sinf darsligi). -T.: „O'qituvchi". 2000.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.02.2022-yildagi PQ-125-sonli qarori